

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 82 (1681), 2026-yil 25-aprel, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA EKSPORTNI KO‘PAYTIRISH, INFLYATSIYANI JILOVLASH, ISH O‘RINLARI YARATISH ASOSIY MEZONDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 24-aprel kuni joriy yilning birinchi choragida hudud va tarmoqlardagi iqtisodiy o‘shish tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish avvalida joriy yilning birinchi choragida erishilgan makroiqtisodiy natijalar ko‘rib chiqildi. Xususan, yalpi ichki mahsulot 8,7 foizga, sanoat 8 foizga, xizmatlar 16,1 foizga, qishloq xo‘jaligi 5,1 foizga o‘tdi. Eksport 5,8 milliard dollarni, xorijiy investitsiyalar hajmi 13,7 milliard dollarni tashkil qildi. Inflyatsiya yillik hisobda ilk bor 7,1 foizgacha pasaydi.

Buning hisobiga yanvar-mart oylarida budjet daromadlari o‘tgan yilga nisbatan 35 foizga ko‘payib, 103 trillion so‘mga yetdi. Mahalliy budjetlarda qo‘shimcha 2 trillion 200 milliard so‘m mablag‘ shakllandi. Muhimi, shundan 1 trillion 400 milliard so‘m tuman va shaharlar ixtiyorida qoldirildi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotni xalqaro miqyosda yangi bosqichga olib chiqish uchun tizimli islohotlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Jumladan, kelasi oy 2 milliard 400 million dollarlik davlat aktivlarining 30 foizi ilk bor xalqaro fond bozorlariga chiqarilishi qayd etildi. Bu Milliy investitsiya jamg‘armasi tashkil etilib, 13 ta strategik korxonaga boshqaruvi nufuzli “Franklin Templeton” kompaniyasiga berilgan bilan bog‘liq.

O‘tgan hafta Xalqaro valyuta jamg‘armasi e‘lon qilgan hisobotda yuqori iqtisodiy faollik orqali O‘zbekiston kuchli va barqaror iqtisodiy o‘shishni saqlab qolayotgani qayd etilgan ta’kidlandi. Shuningdek, joriy yil mamlakatimiz nufuzli “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da 14 pog‘ona yuqorilab, ilk bor “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz birinchi chorakdagi natijalarga mahliyo bo‘lib, xotirjamlikka berilish mutlaqo noto‘g‘ri ekanini ta’kidladi. Global ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va yetakchilik uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda dunyo iqtisodiyoti avvalgidек “sokin” bo‘lmagligi, bunday vaziyatda barcha rahbarlar o‘z ish uslubini, yondashuvini va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirishi zarurligi qayd etildi.

Yig‘ilishda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish masalalari alohida tahlil qilindi. Joriy yil banklar orqali ushbu yo‘nalishga 140 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Kichik biznesga berilgan har 1 milliard so‘m kredit hisobiga Shirin shahrida 20 ta, Uchquduqda 17 ta, Xonobod va So‘xda 14 tadan, Tomdi tumanida 13 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan.

Biroq Uchko‘prik, Piskent, Bo‘stonliq, Karmana, Qo‘rg‘ontepa tumanlarida 1 milliard so‘mlik kreditga o‘rtacha 3 ta ish o‘rni to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bois, kredit resurslarini taqsimlashda sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Soha mas‘ullariga tuman banklarini sun‘iy intellekt bilan ishlashga o‘qitishni boshlash, banklarda “Sun‘iy intellekt maslahatchisi” platformasini ishga tushirish topshirildi. Bu platforma tadbirkorlarga kredit olish uchun loyihaning parametrlari, risklari va bozordagi talabni tahlil qilib, tayyor yechimlar berishi kerakligi ta’kidlandi.

Tadbirkorlar bilan ishlashdagi kamchiliklar ham keskin tanqid qilindi. Ayrim rahbarlar tadbirkor muammosini hal qilish o‘rniga mas‘uliyatdan qochayotgani, masala respublika darajasiga chiqqach, o‘zini oqlash bilan ovora bo‘layotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Masalan, Nurafshon shahrida byurokratik to‘siqlar sababli ikki yildan beri qurilishni boshlay olmayotgan tadbirkorga yordam berish o‘rniga bu ma‘lumot Prezident darajasiga qanday yetib borganini qidirish bilan ovora bo‘lingani tanqid qilindi. Shuningdek, G‘uzor, Narpay, Urganch, Yangiyo‘l, Chinoz tumanlarida tadbirkorlik infratuzilmasi uchun ajratilgan 262 milliard so‘m mablag‘ bo‘la turib, loyihalar boshlanmagani qayd etildi. Tegishli viloyat hokimlariga bunday rahbarlarning lavozimiga loyiqligini ko‘rib chiqish topshirildi.

Yig‘ilishda inflyatsiyani jilovlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari iqtisodiyot o‘sgani bilan agar inflyatsiya ham oshsa, aholi va tadbirkorlar hayotida ijobiy o‘zgarish sezilmagligini ta’kidladi.

Yil boshidan dunyoda neft narxi 40 foizga oshdi. Ziddiyatlar oqibatida logistika koridorlari o‘zgarib, mahalliy mahsulotlar eksporti va asosiy iste‘mol tovarlari importida tashish xarajatlari 25-30 foizga ko‘paymoqda. Bu ichki narx-navoga qo‘shimcha bosim yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, tashqi bosimlarni bahona qilib, inflyatsiya bo‘yicha ishlarni o‘z holiga tashlab qo‘ymaslik kerakligi ta’kidlandi. Iste‘mol savatidagi mahsulot va xizmatlarning 70 foizi mahalliy ekanini qayd

etilib, mutasaddilarga va hokimlarga joriy yilda inflyatsiyani 6,5 foiz darajasida saqlab qolish uchun mahalliy mahsulotlar taklifini ko‘paytirish va narxlarni arzonlashtirish vazifasi qo‘yildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalalari ham atroflicha ko‘rib chiqildi. Logistika dagi uzilishlar oqibatida birinchi chorakda qoramol importi ikki karra kamaygan. Bunga tezkor yechim sifatida samolyotda tashiladigan har bir nasli qoramol uchun 4 million so‘mgacha, go‘sh t importida esa transport xarajatining yarmini qoplash yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchi chorakda 45 ming tonna, yil yakunigacha jami 130 ming tonna go‘sh t importini ta‘minlash zarurligi qayd etildi. Mutasaddilarga qaysi yo‘nalishda to‘siq bo‘lsa yoki yuk to‘xtab qolsa, tadbirkorlar murojat qilishini kutmasdan, onlayn monitoring orqali tezkor yechim berish topshirildi.

Hududlarda 478 ming gektarda ozuqa ekinlari ekilishi rejalashtirilgan. Lekin Namanganda ozuqa yerlarining 74 foiziga haligacha ekin ekilmagani, chorvachilikda imkoniyati yuqori bo‘lgan Zarbdor, Qiziltepa va Pop tumanlarida silos ekish boshlanmagani, Amudaryo, G‘ijduvon, Xongva va Bag‘dodda ham ishlar qoniqsiz ekanini tanqid qilindi.

Yana 100 ming gektar ekin yerini yangi tizim asosida auksionga chiqarish belgilangan. Mazkur yerlarni tezkor auksionga chiqarib, ekin ekish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Sanoat plantatsiyalari tashkil etadigan tadbirkorlarga imtiyoz va moliyaviy resurslar berilayotgani qayd etilib, viloyat hokimlariga bu yil kamida 5 tadan yirik sanoatlashgan meva-sabzavot plantatsiyasini namunali tashkil etish topshirildi.

Yig‘ilishda sanoat va eksport masalalari ham tanqidiy tahlil qilindi. Qamashi, Qarshi, Mirishkor, Arnasoy, Sharof Rashidov, Yangiobod, Navbahor, Kosonsoy, Qumqo‘rg‘on, Furqat, Shovot, Shayxontohur va Sergeli tumanlari sanoat prognoziga chiqqa olmagani qayd etildi. Ushbu 13 ta tuman hokimiga rejaga qancha yetmaganiga qarab intizomiy chora ko‘rish topshirildi.

Ichki bozorda mish taklifi ko‘paytirilgan bo‘lsa-da, qayta ishlash oyiya 6 ming tonnadan oshmayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Oqibatda birinchi chorakda elektrotexnika sohasida sanoat o‘shishi prognozidagi 11,2 foiz o‘rniga 7,8 foizni tashkil qildi, eksport prognozi esa 57 foizga bajarildi.

Mutasaddilarga ishlab chiqarishi va eksporti kamaygan har bir korxonaga borib, eksportni moliyalashtirish hamda investitsiya loyihalari bo‘yicha muammolarni joyida hal qilish topshirildi. Ikkinchi chorak yakuni bilan sohada ishlab chiqarishni 25 trillion so‘mga, eksportni 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Korxonalarda resurs samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish masalasiga ham e‘tibor qaratildi. Ko‘p davlatlar sanoat va servisdagi “Kayzen”, “Lean production” kabi progressiv usullarni qo‘llayotgani, mamlakatimizda ham 50 ga yaqin tadbirkor bunday yondashuvlarni joriy etishni boshlagani aytiladi. Biroq bu yetarli emasligi qayd etilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga bu yil 100 ta korxonada samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilg‘or dasturlarni joriy etish, buning uchun 30 million dollar grant jalb qilish topshirildi.

Eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham kamchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi. So‘nggi olti oyda 908 ta tadbirkor 3 milliard 600 million dollarlik shartnoma tuzgan bo‘lsa-da, hamkorlardagi vaziyat o‘zgarigani sababli eksportni boshlay olmagani. Ayrim hokimlar esa ularga yordam berish o‘rniga vaziyatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan.

Oqibatda birinchi chorakda eksport Norin, Kasbi, Sherobod, Yozyovon va Denovda 2 karradan ziyod kamaygan. Shahrisabz, Uchquduq, Parkent, Toshkent tumanlari, Jizzax, Navoiy, Namangan, Angren, Bekobod va Nurafshon shaharlarida esa eksport rejasi 70 foizga ham yetmagan. Ushbu hudud rahbarlari birinchi yarim yillikda o‘shishni ta‘minlamasa, qat‘iy xulosa qilinishi ma‘lum qilindi.

Sanoat zonalaridan samarali foydalanish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Budget hisobidan yo‘l, elektr va suv infratuzilmasi olib borilgan 226 ta sanoat zonasidagi 213 gektar maydonda haligacha loyiha boshlanmagani tanqid qilindi. Shu bilan birga, 27 ta sanoat zonasida loyihalar joylashtirilgan bo‘lsa-da, infratuzilma yetib bormagan.

Viloyat hokimlarining investitsiya bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga

infratuzilmasi bor sanoat zonalaridagi bo‘sh yerlarga joylashtiriladigan loyihalar portfelini shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

Davlat idoralarni ixchamlashtirish va biznes uchun yangi maydonlar ochish masalasi ham muhokama qilindi. Tumanlardagi markaziy ko‘chalarda va aholi gavjum joylarning katta qismida davlat idoralari joylashgani qayd etildi. “Ko‘kdala tajribasi” asosida 19 ta tuman va shaharda davlat idoralarni yagona ma‘muriy markazga ko‘chirish boshlanmoqda.

Mazkur ishlarni barcha tumanlarda tashkil etish orqali davlat idoralari yiliga 1 milliard 800 million kilovatt-soat elektr va 340 million kub metr gaz tejalishi, biznes uchun 5 million kvadrat metr joy ochilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu maqsadda besh yillik dastur tayyorlash, joriy yil 26 ta tumanda davlat idoralarni bir joyga ko‘chirishni boshlash topshirildi. Yangi ma‘muriy markazlar qurishda har bir xodimga to‘g‘ri keladigan maydon o‘rtacha 15 kvadrat metr dan oshmasligi belgilandi.

Investitsiya loyihalari sifatiga alohida e‘tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari har bir yangi loyiha, har bir dollar sarmoya faqat va faqat qo‘shilgan qiymat, yuqori daromadli ish o‘rni va eksportni ko‘paytirishga xizmat qilishi kerakligini ta’kidladi. Barcha rahbarlar uchun investitsiya sifati asosiy mezon bo‘lishi shartligi qayd etildi.

Ushbu loyihalar ishga tushirilganidan keyin ularni monitoring qilish platformasi yaratilgan. Masalan, oxirgi uch yilda ishga tushgan 688 ta korxonadan 210 tasi quvvatidan to‘liq foydalanmayotgani aniqlangan. Oqibatda 33 trillion so‘mlik ishlab chiqarish boy berilgan, 23 ming ish o‘rni bo‘sh turibdi.

Mutasaddilarga ushbu 210 ta korxonaga kesimda “yo‘l xaritasi” tuzib, muammolar yechimi bo‘yicha aniq muddat va mas‘ullarni belgilash topshirildi.

Joriy yilda 53 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish maqsad qilingan. Prezidentimiz rahbarlar birinchi qadamdan to‘g‘ri loyiha tanlab, unga mos salohiyatli investor topsagina, investitsiyada sifat bo‘lishini ta’kidladi.

Mutasaddilarga sun‘iy intellekt yordamida mavjud quvvatlar, ichki va tashqi bozordagi talabni o‘rganib, qaysi hududda qanday

loyiha qilish bo‘yicha yechim beradigan platformani ishga tushirish topshirildi. Investorlar va konsalting kompaniyalariga ushbu platformadan “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanish uchun sharoit yaratiladi.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyati ham tahlil qilindi. Yurtimizda bunday 18 mingdan ortiq korxonaga faoliyat yuritmoqda. Lekin ishlab chiqarishi bor 526 ta korxonaga biror marta ham eksport qilmagan. Yana 767 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonaga faqat chetdan tovar olib kelib, sotish bilan shug‘ullanmoqda.

Ular bilan ishlab, chetdan mahsulot olib kelib sotayotgan korxonalar shu yerning o‘zida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyihalar taklif qilish, ularni mahalliy tadbirkorlar bilan bog‘lash, ehtiyoj va butlovchi qismlar ishlab chiqarish borasida kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish, ichki bozorda ishlayotgan korxonalariga eksportga chiqishda ko‘mak berish zarurligi ta’kidlandi. Mutasaddilarga bu borada alohida dastur ishlab chiqish topshirildi.

Yig‘ilishda “Aqlli tuman” platformasi va vaziyat-tahlil markazlari tajribasini kengaytirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Davlatimiz rahbari kuni kecha Mirzo Ulug‘bek tumanidagi situatsion-tahlil markazida mazkur platforma qanday tashkil qilingani bilan tanishgani qayd etildi. Bugun barcha viloyat hokimlari ushbu tumanga borib, yangi tizim qanday ishlayotgani, mahallalar qiyofasi va qurilish holati bilan tanishdi.

Viloyat hokimlariga ikki oyda ushbu tajriba asosida viloyat markazlari va yirik shaharlarda xuddi shunday situatsion-tahlil markazlarini ishga tushirish topshirildi.

Davlatimiz rahbari barcha darajadagi rahbarlar bugungi murakkab vaziyatda natija uchun shaxsan mas‘ul ekanini ta’kidladi. Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, inflyatsiyani jilovlash, ish o‘rinlari yaratish, eksportni ko‘paytirish, investitsiya sifati va tadbirkorlar muammolarini hal qilish har bir rahbar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lishi belgilandi.

Yig‘ilishda vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarning hisobotlari tinglandi.

O‘ZA

UNESCO IJROIYA KENGASHI O‘ZBEKISTONNING YANA BIR TAKLIFINI MA‘QULLADI

TASHKILOTGA A‘ZO 65 DAVLAT O‘ZBEKISTON TOMONINING 19-NOYABRNI “XALQARO HUJJATLI MEROS KUNI” DEB E‘LON QILISH QARORIGA HAMMUALLIF BO‘LDI



23-aprel kuni UNESCOning Parijdagi bosh qarorgohida Ijroiya kengashining 224-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan 19-noyabrni — “Xalqaro hujjatli meros kuni” deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi qaror loyihasi bir ovozdan ma‘qullandi.

Xalqaro hujjatli meros kunini e‘lon qilish tashabbusi O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2025-yil 30-oktabr kuni Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan UNESCO Bosh konferensiyasining

43-sessiyasi ochilish marosimida ilgari surilgan edi.

Hujjatli meros — qo‘lyozmalar, arxivlar, kutubxonona fondlari, audiovizual materiallar va raqamli yozuvlar — insoniyat jamoaviy xotirasining muhim qismi hisoblanadi. Biroq resurslar yetishmasligi, raqamlashtirish imkoniyatlarining cheklangani, texnologik eskirish, iqlim va boshqa xavf-xatarlar tufayli zaif bo‘lib qolmoqda.

▶ Davomi 2-beta



MARKAZIY OSIYODA “YASHIL KUN TARTIBI” Resurslar uchun raqobatdan hamkorlikka o‘tish fursati

Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashi doirasida Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar Markaziy Osiyo uchun oddiy diplomatik tadbir emas, balki strategik mazmun kasb etgan voqea sifatida baholanmoqda. Bu safar muhokamalar markazida turgan masalalar faqat tabiatni muhofaza qilish yoki ekologik barqarorlik bilan cheklanib qolmadi. Aksincha, ular iqtisodiy o‘shish modellari, resurslar taqsimoti, mintaqaviy xavfsizlik va davlatlar o‘rtasidagi ishonch masalalari bilan uzviy bog‘liq ekanini yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi.

▶ Davomi 2-beta

Dolzarb mavzu NARKOJINOYATCHILIK VA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH yangicha ish uslublari samara beryapti

Samarqand shahrida BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi bilan hamkorlikda “Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish” mavzusida o‘tkazilgan global forum O‘zbekistonda narkojinoyatlariga qarshi kurashishdagi o‘zgarmas pozitsiyasi va bu yo‘lda hamkorlikni mustahkamlash borasidagi yangi loyihalarining amaliy ko‘rinishi bo‘ldi.

BMT, Interpol, Yevropa Ittifoqi, SHHT, MDH, Jahon bojxona tashkiloti kabi 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilot, 50 ga yaqin davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari rahbarlari, 500 ga yaqin xalqaro ekspertlar va soha mutaxassislari ishtirok etgan ushbu nufuzli xalqaro tadbirda O‘zbekistonning mintaqadagi murakkab joylashuviga qaramay, narkojinoyatlariga qarshi kurashishdagi dadil qadamlari va erishayotgan ijobiy yutuqlari e‘tirof etildi.

Mamlakatimizda so‘nggi 10 yilda giyohvandlik va narkojinoyatlariga qarshi kurashish yo‘nalishida yangicha ish uslublari amaliyotga joriy etilayotgani samara beryapti. Nisbatan qisqa muddatda 22 ta qonun hujjati qabul qilindi. Xususan,

davlatimiz rahbarining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi.

Prezidentimiz 2025-yil 3-noyabr kuni millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda yil boshidan buyon O‘zbekistonda 11 mingdan ziyod narkojinoyat aniqlanib, 2,5 tonnaga yaqin giyohvandlik vositasi olib qo‘yilgani ta’kidlandi.

▶ Davomi 3-beta



UNESCO IROIYA KENGASHI O'ZBEKISTONNING YANA BIR TAKLIFINI MA'QULLADI

TASHKILOTGA A'ZO 65 DAVLAT O'ZBEKISTON TOMONINING 19-NOYABRNI "XALQARO HUIJATLI MEROS KUNI" DEB E'LON QILISH QARORIGA HAMMUALLIF BO'LDI

Boshlanishi 1-betda

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tashabbus hujjati merosning ahamiyati haqida global xabardorlikni oshirish, a'zo davlatlar va hamkorlarning uni asrab-avaylash bo'yicha sa'y-harakatlarini faollashtirish, undan foydalanish imkoniyatini, jumladan, raqamli shaklda kengaytirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va UNESCOning "Dunyo xotirasi" dasturining ko'rinishini kuchaytirishga qaratilgan.

Ushbu tashabbus UNESCOning hujjati merosni asrab-avaylash, axborotdan foydalanish, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish kabi sohalaridagi ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Bu borada O'zbekistonning tashabbusi UNESCOga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Jumladan, UNESCOga a'zo 65 davlat: Albaniya, Jazoir, Armaniston, Ozarbayjon, Bahrayn, Bangladesh, Belarus, Burkina-Faso, Kabo-Verde, Kambodja, Kamerun, Xitoy, Kolumbiya, Kosta-Rika, Kuba, Jibuti, Misr, Ekvatorial Gvineya, Efiopiya, Gvatemala, Gaiti, Vengriya, Hindiston, Indoneziya, Yamayka, Qozog'iston, Kuvayt, Qirg'iziston, Livan, Liberiya, Liviviya, Malayziya, Mali, Mavritaniya, Mavrikiy, Marokash, Mozambik, Myanma, Niger, Nigeriya, Ummon, Palau, Ukraina, Birlashgan Arab Amirliklari, Urug'vay, Venesuela, Vietnam, Yaman, Zimbabve O'zbekiston tomonidan taklif etilgan Ijroiya kengashi qarorining hammualliflari bo'ldi.

Sessiya davomida bir qator davlatlar vakillari ham O'zbekistonning tashabbusini qat'iy qo'llab-quvvatlab, uning o'z vaqtida amalga oshirilgani, amaliy ahamiyati va UNESCOning hujjati merosni saqlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'kidladi.

So'zga chiqqanlar O'zbekiston Prezidentining Xalqaro hujjati meros kunini ta'xis etish tashabbusi UNESCOning ta'lim, madaniyat, bilim olish va insoniyat xotirasini asrab-avaylash sohalaridagi ustuvor yo'nalishlariga uyg'unligini, shuningdek, "Dunyo xotirasi" dasturini mustahkamlash, hujjati merosga xalqaro e'tiborni kengaytirish va uni muhofaza qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni faollashtirishga xizmat qilishini qayd etdi.

Hujjati meros nafaqat madaniy, balki tarixiy xotirani saqlash, milliy o'zlikni tiklash, davlatchilikni mustahkamlash va tarixiy adolatni ta'minlash nuqtayi nazaridan kengroq ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekaniga alohida e'tibor qaratildi. Tashabbusning resurslar taqchilligi, texnologik cheklovlar va iqlim xavf-xatarlari oldida eng zaif bo'lgan mamlakatlar uchun amaliy ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Tashkilotning belgilangan tartibiga muvofiq, Xalqaro hujjati meros kunining rasmiy e'lon qilinishi 2027-yil noyabr oyida UNESCO Bosh konferensiyasining 44-sessiyasida bo'lib o'tadi.

"Dunyo" AA Parij



Munosabat

Sammit o'tgan yili Samarqand iqlim forumida boshlangan muloqotning mantiqiy davomi sifatida Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik diplomatiyasini tizimli, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Orol fojiasi sabab mintaqada kuzatilayotgan yer degradatsiyasi, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi muammolarini yumshatish, bioxilma-xillikni saqlab qolish uchun huddudagi barcha davlatlar hamda shu yo'nalishdagi tashkilotlar bir yoqadan bosh chiqarib, hamijahatlikda harakat qilish zarurligini qayd etdi. Shu yo'lida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi hamda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") huzurida faoliyat yuritayotgan Cho'lanishga qarshi kurashish, qurg'ochlikning oldini olish hamda qum va chang bo'ronlari haqida barvaqt ogohlantirish markazi bilan hamkorlikda maqsadli loyihalarni amalga oshirish taklif etildi.

Universitetimiz huzuridagi markazga mintaqaviy maqom berib, uning bazasida ilmiy salohiyatni birlashtirish, yer degradatsiyasi hamda tuz va changli bo'ronlarni monitoring qilish bo'yicha kuchli tizim yaratish kerakligi aytiladi.

Shuningdek, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan tizimli chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida qariyb 1 milliard tup daraxt va buta ekilgani, Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq maydonida o'rmonzor barpo etilib, yangi "yashil belbog'lar yaratilayotgani qayd etildi.



Baxtiyor PO'LATOV,
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

O'zbekiston mintaqaviy ekologik muammolarga barham berish, unga xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb etishga harakat qilmoqda. Shu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar natijasida yaqinda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining O'rmonlashtirish va o'rmonlarni tiklash bo'yicha harakatlar o'n yilligi rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Mamlakatimizda joriy yil chiqindilarni yoqishga ixtisoslashgan ikkita yangi zavod ishga tushiriladi, yana 9 tasi kelgusi ikki yil davomida faoliyat boshlaydi. Ularning ishga tushirilishi har yili 5,5 million tonna chiqindini utilitatsiya qilish, 2,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, chiqindilar hajmini 1 million tonnadan ortiqqa qisqartirish imkonini beradi.

Sammitdagi muhim takliflardan yana biri texnologik o'tish jarayonlarini tezlashtirish uchun imtiyozli bojxona tartiblari va ekomahsulotlar uchun sertifikatlarni o'zaro

tan olishni nazarda tutuvchi "Markaziy Osiyo yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirishdir.

Prezidentimizning 2023-yil 12-maydagi "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, I-REC tashkiloti bilan hamkorlikda o'zbek tadbirkorlari uchun "yashil energiya" sertifikatini berish tizimi yo'lga qo'yildi. Mahsulot ishlab chiqarishda "yashil" energiyadan foydalanayotgan ko'plab tadbirkorlar shu sertifikatga ega. Yuqoridagi taklif ushbu sertifikatning jozibadorligini yanada oshiradi.

"Markaziy Osiyo yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirish tashabbusi esa mintaqaning kelgusida Yevropa davlatlariga "yashil" energetika eksport qilish rejasini istiqbol uchun ham ahamiyatli. Bu yo'nalishda mintaqaviy davlatlari o'zaro hamkorlikda katta loyihalarga qo'l urmoqda. Shulardan biri Qozog'iston va Ozarbayjon bilan hamkorlikda Yevropaga elektr energiyasi eksport qilish uchun "yashil yo'lak" tashkil qilishdir. Ushbu loyiha Bokudagi COP29 sammitida imzolangan kelishuv asosida amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda bu bo'yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Kaspiy va Qora dengiz ostidan kabel tortish orqali Yevropaga "yashil strategik yo'lak" barpo etilib, yashil energiya eksport qilinishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda Italiya kompaniyasi tomonidan dastlabki texnologiyalar ishlab chiqarilmoqda.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan bu kabi g'oya va tashabbuslar mintaqadagi barcha davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik manfaatlarini uyg'unlashtirib, Markaziy Osiyo mamlakatlarining harakatlarini yagona, qudratli kuchga birlashtirishga qaratilgan bilan strategik ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy ekologik sammit iqlim masalasi umumiy maqsadga erishish yo'lidagi yana bir qadam bo'ldi. Iqlim va ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi va amaliy yechimlarni ishlab chiqish nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarining global iqlim kun tartibiga qo'shgan hissasini oshirish, balki ekotizimlar barqarorligini ta'minlash, havo ifloslanishini kamaytirish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va ustuvor ravishda suv hamda energetika resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha mintaqaviy vazifalarni hal etishga ham xizmat qiladi.



Oybek QO'SHBOQOV,
Parlament tadqiqotlari instituti bo'lim boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning mazkur tashrif doirasida ilgari surgan tashabbuslari esa bu jarayonga muloqo yangi mazmun kiritdi. Ular tashqi ko'rinishdan ekologik dastur yoki tashabbuslar to'plami bo'lib ko'rinmas-da, aslida, Markaziy Osiyoning kelgusi o'n yillikdagi geoiqtisodiy yo'nalishini belgilab beruvchi strategik konsepsiya sifatida shakllanmoqda. Bu tashabbuslar mohiyatini anglash uchun ularni alohida qarorlar emas, balki umumiy tendensiya, ya'ni ekologiyaning global siyosat va iqtisodiyotda markaziy o'rininga chiqishi kontekstida ko'rib chiqish zarur.

Bugungi kunda ekologik muammolarni alohida, tor sohaviy masala sifatida talqin qilish eski yondashuvga aylanib qoldi. Chunki suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi, yer degradatsiyasi kabi jarayonlar to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy o'sishga, oziq-ovqat xavfsizligiga va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, ekologik kun tartibi asta-sekin davlat siyosatining markaziy elementiga aylanmoqda. Ostona sammiti esa aynan shu o'zgarishni institutsional va siyosiy darajada mustahkamlagan voqea bo'ldi.

Sammitda keltirilgan ma'lumotlar ushbu tendensiyaning qanchalik jiddiy ekanini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, ekspertlar bahosiga ko'ra, 2040-yilga borib, Orol dengizi havzasida suv resurslari taqchilligi deyarli ikki barobar oshishi mumkin. Bu raqam oddiy statistika emas, balki mintaqaning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy senariyini belgilab beruvchi indikator. Chunki suv taqchilligi qishloq xo'jaligi mahsuldorligi pasayishi, aholi daromadlari qisqarishi, ichki migratsiya kuchayishi va eng muhimi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi demakdir.

MARKAZIY OSIYODA "YASHIL KUN TARTIBI"

Resurslar uchun raqobatdan hamkorlikka o'tish fursati

Muammoning yanada murakkab jihati shundaki, bugungi kunda mintaqada suv resurslaridan foydalanish samaradorligi past darajada qolmoqda. Qishloq xo'jaligida bir dollar qo'shilgan qiymat yaratish uchun deyarli uch kub metr suv sarflanayotgani qayd etildi. Bu ko'rsatkich jahondagi o'rtacha darajadan qariyb ikki barobar yuqori. Demak, muammo faqat resurs yetishmasligida emas, balki uning samarasiz boshqarilishida ham namoyon bo'lmoqda. Boshqacha aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari tabiiy resurslardan foydalanishning eski, ekstensiv modelida qolib ketgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizdagi islohotlar muhim ahamiyatga ega. Hozir sug'oriladigan yerlarning 60 foizida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilgan, irrigatsiya tarmoqlarining 40 foizi betonlashtirilgan va nasos stansiyalarini modernizatsiyalash orqali energiya sarfi qariyb 30 foiz kamaytirilgan. Bu chora-tadbirlar natijasida har yili 10 milliard kub metr dan ortiq suv tejalamoqda va 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 15 milliard kub metrga yetkazilishi rejalashtirilmoqda.

Ushbu raqamlar, shubhasiz, salmoqli yutuqlardan dalolat beradi. Biroq bu yerda muhim bir savol tug'iladi: ushbu islohotlar tizimli transformatsiyani anglatadimi yoki mavjud modelni qisman optimallashtirish bilan cheklanadimi? Chunki haqiqiy barqarorlikka erishish uchun faqat texnologiyalarni joriy etish yetarli emas. Buning uchun iqtisodiy mexanizmlarni, resurslardan foydalanishga yondashuvni va hatto jamiyatning madaniy qarashlarini o'zgartirish talab etiladi.

Aynan shu jihatdan qaraganda, sammitda ilgari surilgan tashabbuslar orasida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatini modernizatsiyalashga qaratilgan takliflar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu jamg'arma uzoq yillar davomida mintaqaviy hamkorlikning muhim instituti bo'lib kelayotgan esa-da, samaradorligi cheklangani tan olinishi kerak. Shuning uchun uning institutsional salohiyatini oshirish, vakolatlarini aniq belgilash va faoliyatini natijadorlik ko'rsatkichlari asosida baholash zarurligi ta'kidlandi.

Bu takliflar jamg'arma faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini beradi. Biroq bu yerda ham asosiy masala siyosiy iroda va davlatlar o'rtasidagi ishonch darajasidir. Chunki

transchegaraviy resurslar masalasida kelishuvga erishish har doim ham oson kechmaydi. Shu bois, mazkur tashabbuslarning muvaffaqiyati faqat texnik yechimlarga emas, balki siyosiy muloqotning chuqurligiga ham bog'liq bo'ladi. Sammitda ilgari surilgan yana bir muhim g'oya "Markaziy Osiyo yashil savdo yo'lagi"ni yaratish tashabbusidir. Ushbu g'oya, birinchi qarashda, ekologik mahsulotlar aylanmasini rag'batlantirishga qaratilgandek ko'rinmas-da, aslida, u mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning yangi modeli sifatida baholalanishi mumkin. Bu tashabbus doirasida ekologik standartlarni uyg'unlashtirish, sertifikatlarni o'zaro tan olish va savdo tartiblarini soddalashtirish ko'zda tutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mintaqada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Muhokamalarda yana bir konseptual masala — resurslardan foydalanish madaniyatini o'zgartirish zarurligi alohida ta'kidlandi. Prezidentimiz qayd etganidek, agar jamiyatning suvga munosabati o'zgarmasa, hech qanday muhandislik yechimlari kutilgan samarani bermaydi. Bu fikr mohiyatan barqaror rivojlanishning eng chuqur va eng murakkab jihatini ifoda etadi. Chunki madaniyatni o'zgartirish uzoq muddatli, tizimli va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ta'lim, targ'ibot va institutsional islohotlar uyg'unligini talab qiladi.

Shu jihatdan "Kelajak suvi" dasturini ishga tushirish taklifi strategik ahamiyatga ega. Ushbu dastur orqali fermerlar va sanoat korxonalarini suvni tejaydigan texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish ko'zda tutilmoqda. Bu



esa nafaqat resurslarni tejash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Ostonada shakllangan kun tartibini yanada chuqurroq tahlil qilganda yana bir muhim tendensiya ko'zga tashlanadi: Markaziy Osiyoda resurslar asosidagi raqobat asta-sekin resurslar asosidagi hamkorlikka aylanmoqda. Bu o'zgarish o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. U so'nggi yillarda shakllangan siyosiy ishonch, ochiq muloqot va pragmatik tashqi siyosatning natijasidir. Ammo bu jarayon hali nozik bosqichda. U barqaror institutsional mexanizmlar bilan mustahkamlanishi kerak.

Sammit doirasida ilgari surilgan "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" tashabbusi alohida e'tiborga loyiq. Bu tashabbus oddiy deklaratsiyaga emas, balki uzoq muddatli strategik ramka yaratishga qaratilgan. Uning ahamiyati shundaki, u davlatlarni qisqa muddatli qarorlardan



uzoqlashtirib, tizimli va uzluksiz harakat qilishga undaydi. Ammo bu yerda yana bir muhim savol tug'iladi: ushbu "o'n yillik" qanday aniq mexanizmlar orqali amalga oshiriladi? Agar u aniq indikatorlar, moliyalashtirish manbalari va hisobdorlik tizimi bilan ta'minlanmasa, u ham ko'plab boshqa xalqaro tashabbuslar kabi deklarativ xarakterda qolib ketishi mumkin.

Ostona sammitida muhokama qilingan tashabbuslar orasida yana bir strategik yo'nalish mintaqaviy ma'lumotlar va tahlil tizimini yaratish masalasidir. Xususan, Markaziy Osiyo ekologik atlasini ishlab chiqish taklifi bu borada muhim qadam bo'lishi mumkin. Chunki hozirgi kunda mintaqada ekologik ma'lumotlar tarqoq, tizimlashmagan va ko'p hollarda o'zaro solishtirib bo'lmaydigan holda saqlanmoqda. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini qiyinlashtiradi.

Agar yagona ma'lumotlar bazasi va tahlil platformasi yaratilsa, bu nafaqat davlatlar o'rtasida ishonchni oshiradi, balki investitsiyalarni jalb qilish uchun ham muhim omilga aylanadi. Chunki investorlar uchun shaffoflik va aniqlik birinchi darajali ahamiyatga ega.

Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish uchun texnologik platformalar ahamiyati ortib bormoqda. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt va monitoring tizimlari orqali suv resurslarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ammo bu yerda ham savol tug'iladi: Markaziy Osiyo davlatlari bunday texnologiyalarni joriy etishga tayyormi? Bu nafaqat moliyaviy, balki institutsional va kadrlar salohiyatiga ham bog'liq masala.

Ostona sammitidagi muhokamalardan kelib chiqadigan yana bir muhim xulosa shuki, Markaziy Osiyo davlatlari uchun ekologik kun tartibi endi tashqi bosim emas, balki ichki ehtiyoqga aylanmoqda. Bu juda muhim o'zgarish. Chunki tashqi bosim asosida qabul qilingan qarorlar ko'p hollarda formal xarakterda bo'ladi. Ichki ehtiyoq esa haqiqiy islohotlarni rag'batlantiradi.

Biroq bu jarayonda muvozanatni saqlash juda muhim. Chunki ekologik islohotlar iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi, ayrim tarmoqlarga salbiy



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun "yashil o'tish" siyosatini amalga oshirishda ijtimoiy himoya mexanizmlari, biznes uchun qo'llab-quvvatlash choralari va bosqichma-bosqichlik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.

Ostona sammiti nafaqat muammolarni aniqlash, balki ularni hal qilish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilab berdi. Bu yo'nalishlar orasida eng muhimi integratsiyani chuqurlashtirishdir. Chunki ekologik muammolar milliy chegaralarni tan olmaydi. Demak, ularni hal qilish uchun ham milliy emas, mintaqaviy yondashuv talab etiladi.

Eng muhimi, bu jarayon yangi O'zbekiston tashqi siyosatining mazmun-mohiyatini yana bir bor namoyon qildi. Ya'ni ochiqlik, pragmatizm va konstruktiv hamkorlikka asoslangan yondashuv milliy manfaatlarni ilgari surish bilan birga mintaqaviy manfaatlarni shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Agar ushbu tashabbuslar izchil va tizimli ravishda amalga oshirilsa, Markaziy Osiyo nafaqat ekologik muammolarni hal qilishda, balki "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishda ham global miqyosda muhim o'rinni egallashi mumkin. Bu o'z navbatida, mintaqaning xalqaro nufuzini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, Ostona sammiti natijalarini faqat hujjatlar yoki bayonotlar bilan o'lchash to'g'ri emas. Uning haqiqiy ahamiyati yangi fikrlash tarzi, yangi yondashuv va eng muhimi, yangi imkoniyatlar eshigini ochganida namoyon bo'ladi.

Dolzarb mavzu



Asr vabosiga qarshi kurashishda keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlar ham samara bermoqda. Xususan, "Qoradori — 2025" tadbiri davomida tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan ekinlarni yetishtirish bilan bog'liq 1500 ga yaqin jinoyat aniqlandi.

Davlatimiz rahbari o'sha kunning o'zidayoq "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Ushbu

NARKOJINOYATCHILIK VA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH

yangicha ish uslublari samara beryapti

hujjatdan ko'zlangan maqsad giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholi, ayniqsa, yoshlar salomatligi hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilashdan iborat edi.

Farmon bilan Giyohvandlik va narkojinoyatning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi tasdiqlandi. Milliy dasturda 52 ta ustuvor yo'nalish va ularni bajarishda alohida chora-tadbirlar belgilandi.

Respublikada narkojinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida tezkor-qidiruv faoliyati samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2025-yilda huquqni muhofaza qilish organlari o'tkazgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida 15 ming 412 ta narkojinoyat, sintetik giyohvandlik vositalarini ishlash chiqarishga ixtisoslashgan 14 ta narkolaboratoriya va kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini qo'lbo'la qadoqlovchi sex aniqlandi. Giyohvandlik vositalari savdosini targ'ib qiluvchi internet-narkodo'kon aks ettirilgan 13 ming 170 ta "narkografit" aniqlanib, yo'q qilindi.

Narkojinoyat sodir etgan 11 mingdan ortiq shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi. Noqonuniy muomaladagi 3 tonna 775 kilogramm giyohvandlik vositasi o'rnatilgan tartibda yo'q qilindi. "Qora bozor"dagi taxminiy narxi 14 million dollarga teng 2 million 55 ming donadan ortiq kuchli ta'sir qiluvchi dori vositasi olindi.



Bu jarayonda birinchi o'rinda profilaktik tadbirlarga alohida ahamiyat berilyapti. Har yili fevralda "Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish" kompleks tezkor-profilaktik tadbiri muntazam o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, sport musobaqalari, tasviriy san'at ko'rik-tanlovi, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari, chellenj, "Quvnoqlar va zukklar" o'yini, marafonlar tashkil etildi.

Joriy yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan yig'ilishda narkotiklarga qarshi kurashishda davlat organlari faoliyati tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqilib, qator muhim vazifalar belgilangandi. Xususan, o'tgan

yilda poytaxtda narkotikka ruju qo'ygan 1500 dan ortiq shaxs rasman ro'yxatga olingani, achinarlisi, "soya"da bo'lgan giyohvandlarning soni bundan ham ko'pligi qayd etildi.

Ushbu illatga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida bundan buyon "Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish" kompleks tezkor-profilaktik tadbiri yil davomida 3 bosqichda tashkil etilishi belgilandi. Uning birinchi bosqichi joriy yil fevralda o'tkazildi. Tadbir davomida ta'lim tashkilotlari, korxon-tashkilotlar hamda mahallalarda taniqli, obro'-e'tiborga

ega shaxslar ishtirokida uchrashuv va davra suhbatlari uyushtirildi. Mahallalardagi uyushmagan yoshlar, bemaqsad va ishsiz yurganlar hamda muqaddam sudlanganlardan 640 nafarining bandligi ta'minlandi.

Asr vabosiga qarshi kurashishda keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlar ham samara bermoqda. Xususan, "Qoradori — 2025" tadbiri davomida tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan ekinlarni yetishtirish bilan bog'liq 1500 ga yaqin jinoyat aniqlandi. Bu holat yil davomida aniqlangan ushbu turdagi jinoyatlarning 70 foizini tashkil etdi. Qariyb 27 ming kvadrat metr maydonda yetishtirilayotgan giyohvandlik o'simliklari yo'q qilindi.

Shuningdek, zahriqotilni ikki mingga yaqin o'tkazish, ikki mingdan ortiq saqlash, 172 ta kontrabanda qilish jinoyati fosh etildi.

Ayni paytda aholi orasida giyohvandlik illati tarqalishiga qarshi kurashishga yangicha yondashilyapti. Avvalo, ushbu tizimning moddiy-texnik bazasi, ayniqsa, ekspert-kriminalistika sohasi takomillashtirilmogda, jinoyat qidiruv xodimlari zamonaviy tezkor tekshirish moslamalari bilan ta'minlanaypti. Tizimni raqamlashtirish yangi bosqichga olib chiqilmogda. Internetda giyohvandlik vositalari tarqatilishini sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida aniqlash va bloklashga mo'ljallangan maxsus dasturlar, ma'lumotlar bazasi ishlash chiqilmogda.

Barcha sohaviy xizmatlar xodimlari, ayniqsa, ta'lim tashkilotlari inspektor-psixologlarining narkovaziyat va narkojinoyatchilik yo'nalishida malakasini muntazam oshirish borish tizimi yo'lga qo'yildi. Ichki ishlar organlari tuzilmalarida prekursrlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish tizimi faoliyati tashkil etildi.

Yirik miqdordagi narkojinoyatlar, xususan, narkolaboratoriyalarni aniqlagan fuqarolar munosib rag'batlantirilyapti. Jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar hamda probatsiya va profilaktik hisobda turgan shaxslarga yakka tartibda tezkor-profilaktik chora-tadbirlar ko'rilmoqda. O'quvchi va talabalar o'rtasida giyohvandlik hamda narkojinoyatlarning oldini olishning yangi tizimi joriy etilmogda. Jumladan, maxsus otryadlar va patrullar tashkil etilib, ichki ishlar organlariga xabar berish tizimi takomillashtirilmogda.

O'zbekistonda so'ngi yillarda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish va narkotiklarga qaramlikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu yo'nalishda ichki ishlar organlari salmoqli natijalarga erishyapti. Bu borada nafaqat huquqni muhofaza qilish idoralari, balki tibbiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab olgan kompleks yondashuv joriy etilmogda.



Farovonlik xaritasi

"DEPUTATLAR TASHABBUSI" — XALQ VAKILLARINING ISHONCHLI OVOZI

Xalqimizning "Dono tinglar, muammoni o'nglar" hikmati asosida aholi murojaatlari bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Zero, yangi O'zbekistondagi islohotlarning tub zamirida inson qadriini ulug'lashdek ezuq maqsad mujassam ekan, xalqimizni rozi qilishning eng asosiy yo'li, avvalo, muloqot va muammolar yechimidir. Boisi, aholini qiynayotgan muammolar xalqning ichiga chuqur kirib borilganidagina yaxshi bilinadi. Muammolar yechimiga doir qarorlar esa bevosita yurtdoshlarimiz ishtirokida qabul qilinishi natijaning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bu borada "Tashabbusli budget" ham aholining muammolari masalalarini o'rganish va hal etish, ham ushbu jarayonda yurtdoshlarimizning bevosita ishtirokini ta'minlash nuqtayi nazaridan g'oyat samarali loyihalardan biri bo'ldi. Ushbu loyiha Prezidentimizning 2021-yil 13-apreldagi

"Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida tashkil etilgandi.

Qarorga muvofiq, "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi tuzildi va uning moliyaviy manbalari tuman (shahar) budgetidan 5 foiz,

qo'shimcha manbalarning kamida 30 foizi etib belgilandi. Keyinchalik viloyatlarning qo'shimcha mablag'larining bir qismi ham shu tizim bo'yicha sarflanadigan bo'ldi. 2021-yilda loyiha sinov tariqasida har bir hududdan bittadan tumanda amalga oshirildi. Tajriba davomida 41 mingdan ortiq taklifga fuqarolar tomonidan 1 milliondan ortiq ovoz berildi. Natijada 1600 ta taklif g'olib bo'lib, u yerlarda qurilish, ta'mirlash ishlari olib borish uchun 407 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

Ta'mirlanishi kerak bo'lgan manzilli taklif etish va ovoz berish jarayonlarini olib borish uchun "Ochiq budget" axborot portali tashkil etildi. Barcha amallarning onlayn tarzda, inson omilsiz amalga oshirilishi esa odamlarning ushbu mexanizmga ishonchini yanada o'rtirdi.

O'tgan yillarda "Tashabbusli budget" bilan bir qatorda ayni maqsad va mexanizmga asoslangan "Mening yo'lim", "Mening bog'cham", "Mening bog'im" kabi loyihalar e'lon qililmogda. Bunda yo'nalishlar bo'yicha alohida ovoz to'plash ehtiyoj yuqorligi ushbu loyihalar ahamiyatini belgilaydi.

2026-yil 21-martda "Tashabbusli budget" loyihasining joriy yil birinchi mavsumi g'oliblari e'lon qilindi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 1996 ta loyiha g'olib deb topildi. Shundan 1980 tasi an'anaviy, 16 tasi sheriklik loyiha hisoblanadi. G'olib loyihalarni amalga oshirish uchun jami 3 trillion 5 milliard 827 million so'mdan ortiq mablag' ajratilishi rejalashtirildi. Eng ko'p loyihalar ichki yo'llar, maktablar, sog'liqni saqlash muassasalarni ta'mirlash va jihozlash yo'nalishlarida bo'ldi.

Umuman, o'tgan yillar davomida "Tashabbusli budget" loyihasi davlat va jamiyat uchun birdek foydali ekani isbotlandi. Shu boisi, bu tizimni kengaytirish, yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmogda.

Xususan, ushbu loyihaning qamrovi yangi mexanizmlarni joriy etish orqali yanada kengaytirildi. Ulardan biri "Deputatlar tashabbusi" loyihasidir. Bu esa yanada ko'prog' tashabbuskorlar g'olib bo'lishiga zamin yaratdi.

Mazkur loyiha tartibiga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari shu yildan

boshlab har yili tashabbusli budget jarayonlari doirasida tegishli saylov okruglarida g'olib bo'lmagan loyihalar orasidan aholining kundalik hayotiga va hududni rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladigan ikkita loyihani (har mavsumda bittadan) "Ochiq budget" axborot portalida tanlash va mazkur tanlov respublika budgetidan moliyalashtirish uchun asos bo'lishi belgilandi. Mazkur yangi tartib asosida joriy yil ilk bor g'olib bo'lgan loyihalar soni yana qariyb 150 taga ko'paydi. Ularni deputatlar muayyan mezonlarga ko'ra saralab berdi.

YO'LIMIZ RAVON BO'LSA, HAYOTIMIZ TO'KIN BO'LADI

Iqboljon ESONOV, Namangan viloyati "Beshserka" MFY raisi:

— Mahallamizda bir yarim mingdan ortiq kishi istiqomat qiladi. Ko'p yillardan buyon mahallamizning asosiy yo'li — Buloqboshi ko'chasining 2,6 kilometr qismi yaroqsiz ahvolda tushib qolgandi.

Ikki-uch yildan beri "Tashabbusli budget"ga loyiha sifatida kiritamiz, ammo muvaffaqiyat qozona olmaymiz. Bu yil ham g'olib bo'la olmadik. Endi umidlarimiz puchga chiqdi deb turganimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi deputatimiz Zafar Xudoyberdiyev Prezidentimiz qarori bilan "Tashabbusli budget" jarayonlari doirasida g'olib bo'lmagan loyihani deputat tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilish tartibi yo'lga qo'yildi. Loyihamiz ushbu tartibga asosan tanlangani bildiradi. Ochiq'li davlatimiz rahbarining mana shunday kichik, ammo biz uchun muhim jihatlarga ham e'tibor qaratib, huquqiy yechim yaratib berganidan juda xursand bo'ldik.

Yo'l ta'miri faqatgina transport mahalla ichida erkin harakatlanadi degani emas. Ushbu loyihaning qo'llab-quvvatlanishi ortidan hududdagi ko'plab ijtimoiy muammolar o'z yechimini topadi. Chunki bu yo'l nafaqat ichki, balki qo'shni mahallalarni bog'laydigan, transport vositalari qatnovi yaxshilanishi evaziga aholiga ham vaqtini, ham mablag'ini tejashga imkon beradigan yo'l hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur yo'l yoqasida yangi xizmat ko'rsatish shoxobchalari va dala do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgani uchun yo'l yoqasida chorva ozuqasi do'konlarini ochishga ham ehtiyoj bor. Shu bilan birga, ushbu loyiha tez tibbiy yordam va boshqa favqulodda xizmat mashinalari mahallaga o'z vaqtida yetib kelishi hamda tuman markaziy shifoxonasiga bemorlar o'z vaqtida yetkazilishiga ham xizmat qiladi.

Umuman, yo'limizning ravon bo'lishi hayotimizni yanada farovonlashtiradi. Markazdan olinda joylashgan bo'lsa-da, mana shunday mahallalarda yangi O'zbekiston qiyofasini yaratishga qaratilgan keng ko'lamlil buniyodkorlik ishlaridan mahallamiz ham chetda qolmayotganimizdan mamnunmiz.



Bir so'z bilan aytganda, tashabbusli budget tizimi har yili keng ko'lamlil buniyodkorlik ishlariga zamin bo'lmoqda. Natijada qanchadan qancha yo'l, bog'cha, maktab, tibbiyot muassasalari ta'mirlanib, aholimizga yanada sifatli xizmat ko'rsatyapti. Millionlab ovozlarning har biri odamlarimiz fikri, o'y-xayoli, niyatini aks ettiradi. Bunday buniyodkorliklar esa xalqimizning hayotidan rozi bo'lib, farovon yashashiga zamin yaratmoqda.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Sanjar ESHMURODOV tayyorladi.

QO'SHIMCHA IMKONIYAT VA ADOLATLI QAROR KAFOLATI

Maqsudbek QURBONBOYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari:

— "Ochiq budget" portali orqali aholi tomonidan ilgari surilgan loyihalar ochiq ovoz berish orqali saralanadi. Eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar g'olib topilib, moliyalashtiriladi. Bu jarayonda adolat, tenglik va oshkorlik ustuvor tamoyil sifatida qaror topmoqda.

Ammo yillar davomida ushbu tizimda ham e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlarga ko'zga tashlandi. Jumladan, ayrim holatlarda juda muhim va dolzarb loyihalar yetarlicha ovoz to'play olmagan sabab g'oliblikka erisha olmayapti. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, yangi mexanizm — "Deputatlar tashabbusi" amaliyotga joriy etildi.

Mazkur tizim O'zbekiston Prezidentining 2025-yil 29-avgustdagi "Tashabbusli budget jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilarni o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq yo'lga qo'yildi. Uning asosiy maqsadi "Tashabbusli budget" jarayonlarini yanada takomillashtirish, xalq vakillari va saylovchilarni o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishdan iborat.

2026-yildan boshlab har bir deputat uchun yillik 3,3 milliard so'm ajratilishi belgilangan, umumiy hisobda 494 milliard so'm mablag' rejalashtirildi. Bu esa hududlardagi dolzarb muammolarni hal etishda katta imkoniyat yaratadi.

Yangi tartibda qator muhim kellek va talablar ham joriy etilgan. Jumladan, loyihalar g'olib deb topilishi uchun minimal ovozlar soni 50 ta etib belgilandi (avval 10 ta edi). Jihozlash loyihalari uchun eng yuqori



qo'shimcha ravishda g'olib deb topilib, ko'priknit ta'mirlash uchun 1 milliard 648 million so'm ajratilishi belgilandi.

Bugungi kunda "Ochiq budget" orqali maktablar ta'mirlanmoqda, yo'llar qurilmogda, ichimlik suv va elektr ta'minoti yaxshilanmoqda. Bu esa tizimning amaldagi samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

"Ochiq budget" va "Deputatlar tashabbusi" o'ddiy islohot emas. Bu xalq iradosi aks etadigan, adolatlil qarorlar qabul qilinadigan va jamiyat ishonchini mustahkamlaydigan zamonaviy demokratik mexanizmdir.

29-aprel – Zilzila qurbonlarini xotirlash xalqaro kuni

TABIAT HODISASI – YER SILKINISHI QANDAY SODIR BO'LADI?




O'tgan yili BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan 29-aprelni Zilzila qurbonlarini xotirlash xalqaro kuni deb e'lon qildi. Aslida, yer silkinishi eng vayronkor tabiiy ofatlardan biri. Ayniqsa, keyingi yillarda dunyoning bir qancha mamlakatlarida ro'y bergan kuchli zilzilalar tufayli minglab odamlar qurbon bo'ldi. Bu, albatta, ko'pchilikda katta tashvish uyg'otdi. O'zFA Seysmologiya instituti bosh ilmiy xodimi, akademik Qahhorboy ABDULLABEKOV bilan suhbatimiz tabiiy hodisa — zilzilalar haqida bo'ldi.



tuzilgan. Afsuski, bizda bu ma'lumotlar to'liq emas. Keyingi 100-200-yillik ma'lumotlar bor, xolos. Undan ilgari to'g'risida ayrim taxminiy ma'lumotlar saqlangan. Balki eski qo'lyozmalarda, kitoblarda bizga nihoyatda zarur axborot saqlanayotgan bo'lishi mumkin. Bu sohada tarixchilarimiz, manbaxunoslarimiz yordam qo'lini cho'zsal yaxshi bo'lardi. Ba'zi manbalarda tarixda ayrim shaharlarimizda kuchli zilzilalar bo'lib o'tganini o'qiganmiz. Masalan, 838-839-yillarda Farg'onada, 942-yilda Buxoroda, 1208-1209-yillarda Urganchda, 1490-yilda Samarqandda, 1494 hamda 1927-yillarda Namanganda, 1620-yilda Axsiyentda, 1821-1822-yillarda Buxoro va Samarqand

gipotsentrgacha bo'lgan oraliq zilzilaning chuqurligi hisoblanadi. O'zbekistonda sodir bo'ladigan zilzilalar asosan 10-20, janubroqda 30-40 kilometr, Afg'onistonda esa 280-300 kilometr chuqurlikda sodir bo'lishi mumkin. Eng chuqur zilzilalar o'chog'i yer sathidan 700-750 kilometr gacha chuqurlikda Tinch okeani atrofida joylashgan. Chuqurligiga qarab zilzilalar uchga bo'linadi. Yer sathidan 70 kilometr chuqurlikkacha joylashganlari yer qobig'i zilzilalari, 70 dan 300 kilometr gacha bo'lganlari oraliq yoki qobiq osti zilzilalari va 300 kilometr dan 700-750 kilometr gacha bo'lganlari chuqur fokusli zilzilalar hisoblanadi. Markaziy Osiyoda,



Seysmik to'liqlar har xil tezlikka ega. Agar zilzila yaqin — 100-150 kilometr gacha masofada bo'lsa, to'liqlar birin-ketin tez yetib keladi, bir-biriga qo'shiladi va ularni odamlar deyarli bir-biridan ajrata olmaydi.

yaqinida, 1902-yilda Andijonda, 1868, 1924, 1938, 1966, 2008-yillarda Toshkentda, 1976, 1984-yillarda Gazlida va hokazo. Ularning eng dahshatlisi 1902-yili Andijonda ro'y bergan 9-10 balli va 1966-yili Toshkentda bo'lib o'tgan 8 balli zilzila hisoblanadi. Xullas, mamlakatimiz tabiiy ofatlardan xoli hududlardan emas. Shunday ekan, biz, olimlar zilziladan betalofot o'tish choratadirlarini ko'rishimiz, iloji boricha uning zararli oqibatlarini bartaraf etish uchun qanday muammolar mavjudligini xalqimizga tushuntirib borishimiz lozim. Chunki Yer sharida yiliga o'rta hisobda o'n mingga yaqin kuchli va sezilarli zilzila sodir bo'ladi. Ulardan 15-20 tasi fojiali oqibatlarga olib keladi.

zususun, O'zbekistonda ro'y beradigan zilzilalarning barchasi birinchi guruhga kiradi. — Muayyan nuqtada yuz bergan zilzila Yer sharining boshqa mintaqalariga ham ta'sir etishi mumkinmi? — Albatta. Olimlar fikricha, Yer umumiy seysmik kuchlanishga ega. Demak, bir joydagi qattiq yer silkinishi o'z ortidan boshqa kuchlanishlarni olib kelishi mumkin. Bu tabiiy o'zgarishlar har doim ham bir xil kechavermaydi. Misol uchun, Yer yuzining ba'zi nuqtalaridagi kuchli zilzila boshqa joyi qo'zg'atishi ehtimoli bor. Bizning mintaqamiz ham bundan xoli hudud emas. Keling, shu o'rinda O'zbekistonning sharqdagi seysmik holatini 100-120-yil davomidagi natijalarini ko'rib chiqaylik. O'zbekiston mintaqasidagi seysmik jarayon taxminan har 35 yilda davriy takrorlanib turadi. 20-25 yil davom etgan tinch holatdan so'ng yer qimirlashi kuchayib boradi. Navbatdagi jarayon so'nggi 100-120 yil davomida 3 marta kuzatilgan. Demak, bu to'rtinchi jarayon boshlanayotganidan dalolat bermoqda.

Zilzilaning sodir bo'lish vaqtini oldindan aniq-tiniq aytish mushkul. Seysmik kuchlanishning ham o'ziga xos yillari mavjud. Masalan, o'tgan asrimizning so'nggi vaqtlarida seysmik jarayonlar 1905-1910, 1930-1950, 1955-1960-yillarda ko'proq kuzatilgan. Mutaxassislar fikricha, 1998-1999-yillar ham ana shu jarayonga kiradi va hali davom etishi ehtimoldan xoli emas. — Ba'zan ommaviy axborot vositalarida "zilzila o'chog'i" degan atamaga duch kelamiz. Shu atama haqida ma'lumot berib o'tsangiz. — Bu tabiiy ofat yerning muayyan chuqurlikdagi qatlamlarida sodir bo'ladi va atrofga tarqaladi. Yer silkingan joyi zilzila o'chog'i deydimiz, o'chog'ning markazi gipotsentr deb ataladi. Gipotsentring yer yuzidagi proyeksiyasi epitsentr deyiladi. Epitsentr va gipotsentr oraliq'idagi masofa yoki yer sathidan

Zilzila ro'y bergandan keyin ba'zan yana takrorlanishi ham mumkin. Xalqimiz orasida "zilzila qaytdi" yoki "qaytmadi" degan iboralar uchray turadi. — Seysmik to'liqlar har xil tezlikka ega. Agar zilzila yaqin — 100-150 kilometr gacha masofada bo'lsa, to'liqlar birin-ketin tez yetib keladi, bir-biriga qo'shiladi va ularni odamlar deyarli bir-biridan ajrata olmaydi. Agar masofa bir necha yuz kilometr va undan ortiq bo'lsa, to'liqlar oldinma-keyin, lekin alohida-alohida yetib keladi.

o'zi bo'yi va eni minglab kilometr bo'lgan maydonni egallagan ulkan "tog' mamlakati"dir. Balandligi ayrim joylarda 4-5 kilometr dan ortadi. Ana shu ulkan tog'larni hosil qiluvchi kuchlar zilzilalarga ham sabab bo'lishi ehtimoli bor.

Markaziy Osiyo hududida hozir tog' hosil bo'lish jarayoni davom etmoqda. Ana shu tog' hosil qiluvchi tektonik jarayonlar zilzila sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Eng asosiy sabab tog' hosil qiluvchi yer osti kuchlarining maydon bo'ylab bir tekisda tarqalmashidir.

Tyanshan, o'z navbatida, Farg'ona, Chotqol, Turkiston, Oloy, Zarafshon, Hisor kabi 10 ga yaqin tog' tizmalaridan tashkil topgan. Tog' tizmalari silsilasida Chuy va Farg'ona vodiylari, Toshkent vohasi joylashgan. Odatda tog' tizmalari kattaroq tezlikda, ular o'rtasidagi vohalar kamroq tezlikda harakat qiladi. Tezligi har xil bo'lgan qatlamlarda asta-sekin burilishlar, egilishlar paydo bo'la boshlaydi va oxir-oqibat ularning sinishi-parchalanishiga olib keladi. Ana shu jarayon zilzilani keltirib chiqaradi. Yig'ilgan mexanik energiya elastik seysmik to'liqlar energiyasiga aylanadi va yer silkinishiga olib keladi.

Mobilistik fikrga ko'ra, Yer shari o'ndan ortiq yirik plitaga bo'lingan. Ular turli yo'nalishda gorizontal harakatga ega. Plitalarning o'zaro to'qnashuvi ulkan tog'lar hosil bo'lishiga, jumladan, zilzilalar ro'y berishiga olib keladi. Masalan, Markaziy Osiyodagi Tyanshan, Pomir, Hindukush tog'larining paydo bo'lishi va zilzilaning kelib chiqishiga sabab Hind va Yevrosiyo plitalarining to'qnashuvidir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tog' hosil qiluvchi zilzilalarga olib keluvchi jarayonlar vertikal va gorizontal yo'nalgan qo'shimcha kuchlar ta'sirida ro'y beradi.

Turli yillarda yuzaga kelgan tabiiy ofatlar tarixini yaxshi bilishimiz, undan zarur xulosa chiqarishimiz foydadan xoli bo'lmasa kerak?

Yurtodshlarimiz mamlakatimizda ba'zan kuchli, ba'zan kuchsiz zilzilalar ro'y berib turishini yaxshi biladi. Biroq inson tabiatida unutuvtuvchanlik xususiyati mavjud. Masalan, yillar o'tgan sari yuz bergan tabiiy ofatlar kulfatini yomirdan chiqaramiz, suv tushishi yoki ko'chki ehtimoli bo'lgan yerlarga imoratlar quramiz va hokazo. Zilzila haqida ham shunday deyish mumkin.

Ko'pgina davlatlarda ming yil, hatto undan oldingi zilzilalarning tarixiy jadvallari

Ko'pchilik zilzilaning kelib chiqish sabablarini bilmaydi. Suhbatimiz avvalida shu haqda to'xtalib o'tsangiz.

Odamlar juda qadim zamonlardan buyon zilzilaning kelib chiqish sabablari bilan qiziqib kelgan. Grek olimi Demokrit (eramizdan avvalgi 460-370-yillar) fikricha, zilzilalar qor, yomg'ir, dengiz va ko'llardagi suvlarning yer ostiga shimilishi natijasida ro'y beradi. Boshqa grek olimi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322-yillar) g'or va boshqa bo'shliqlarda yig'ilib qolgan havoning katta bosim ta'sirida yer ostiga kirishini, oy tutilishini va dovullarni zilzilaning sababchisi, deb ko'rsatgan.

O'rta asring mashhur qomusiy olimlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va keyinroq Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z asarlarida zilzilaning sabab va oqibatlari haqida fikrlar bildirdi. Ular zilzilalar ayrim joylardagina sodir bo'lishi hamda yil fasllariga, Quyosh va Oy fazalariga bog'liqligi haqida yozishgan. "Bobumoma"da zilzila kuchi yer ustida qanday tarqalishi haqida qimmatli fikrlar aytilgan.

So'nggi o'n yilliklarda Yerning koinotda va Quyosh tizimida tutgan o'rni, o'lchamlari, fizik va kimyoviy xossalari, tuzilishi, undagi turli jarayonlar to'g'risida geologiya, geofizika, geokimyosi, astronomiya va yana bir nechta fanlar yordamida aniq ma'lumotlar olishiga muvaffaq bo'ldi.

Zilzilaning kelib chiqish sabablari haqida hozirgi kunda, asosan, ikki xil fikr bor — fikrsitik va mobilistik. Fikrsitik fikrga ko'ra, yerning chuqur qatlamlarida murakkab kimyoviy, fizik jarayonlar to'xtovsiz davom etadi. Ularning birinchisi, solishtirma og'irliklari og'ir jinslarning doimo pastga, yengil jinslarning yuqoriga bo'lgan harakati. Ikkinchisi, radioaktivlik xossasi asosida bir jinsdan ikkinchisi hosil bo'lishi yoki jinslarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi natijasida energiya ajralishi.

Bunday reaksiyalar sodir bo'lishiga sabab yerning chuqur qatlamlarida juda katta bosim va issiqlik mavjudligidir. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, u yo'qolib ketmaydi. Demak, hosil bo'lgan energiya sarf bo'lishi kerak. Ushbu energiya yerning ostida juda katta hajmdagi jinslarni harakatga keltiradi. Energiyaning qanchalik kattaligini tasavvur qilish uchun Tyanshan, Pomir, Kavkaz yoki Himolay tog'larini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Masalan, birgina Tyanshaning

"Yangi O'zbekiston yoshlari — 2030" strategiyasi yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiquvchi muhim dastur hisoblanadi. Unda belgilab olingan vazifalar mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyotiga, yigit-qizlar kelajigiga puxta zamin yaratadi.



Otabel MUSURMONOV, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputati

Bugungi kunda davlat qudrati inson kapitali, bilim va innovatsiyalar orqali o'lchanadi. Shu nuqtayi nazaridan, yurtimizda yuritilayotgan yoshlar siyosati "smart power" (aqli kuchning yorqin ifodasidir). Ya'ni davlat o'z ta'sirini kuchaytirish uchun



Kamolot pillapoyasi

yoshlarning intellektual salohiyati, bilim darajasi va global raqobatbardoshligini oshirishga tayanayotgani kuzatiladi. O'zbekiston hozir "demografik dividend" bosqichida turibdi. Bu mehnatga layoqatli aholi ulushi yuqori bo'lgan davr iqtisodiy o'sish uchun ulkan imkoniyat yaratadi, degani. Biroq ushbu imkoniyatdan to'g'ri foydalanilmasa, u ijtimoiy muammolarga, ishsizlikka va iqtisodiy bosimga aylanishi mumkin. Shu bois, strategiyada yoshlar bandligi, tadbirkorligi va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Bu esa demografik resursni real iqtisodiy kapitalga aylantirishning aniq mexanizmi hisoblanadi.

Yoshlarga qaratilayotgan keng ko'lamli e'tiborni faqat ijtimoiy himoya sifatida baholash

yetarli emas. Bu, avvalo, inklyuziv iqtisodiy o'sish modelining amaliy ko'rinishidir. Xususan, chekka hududlarda o'quv markazlari tashkil etish uchun 300 million so'mgacha ssudalar ajratish, soliq imtiyozlari joriy etish, yosh tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ipoteka dasturlari orqali yosh oilalarga yordam berish — bularning barchasi iqtisodiy imkoniyatni aholining keng qatlamiga yetkazishga xizmat qiladi. O'z navbatida, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, hududlar o'rtasidagi farqni qisqartirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda qo'l keladi.

Hozir mamlakatimiz iqtisodiyoti iste'molchi modelidan ishlab chiqaruvchi modelga o'tmoqda. Mazkur jarayonda asosiy drayver sifatida aynan yoshlar maydonga chiqaypti. "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturi

YOSHLAR FAOLIGI YANADA ORTADI



dorasida yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda yoshlarni o'qitish, startaplarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash ularni ish izlovchi

emas, balki ish o'rni yaratuvchi subyektki aylantirishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Eng muhimi, yoshlar siyosati tashqi samara uchun qilingan vaqtinchalik choralar emas.

Aksincha, aniq maqsadli ko'rsatkichlarga ega, tizimli mexanizmlar bilan ta'minlangan va uzoq muddatli natijalarga yo'naltirilgan strategik islohotlar majmuasidir.

Strategiya doirasida xalqaro hamkorlikka ham katta ahamiyat berilayotgani e'tiborga molik. Chunki yoshlarni global ta'lim va mehnat bozoriga integratsiyalash, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliyot dasturlari tashkil etish, xorijiy tajribani jalb qilish O'zbekistonning global raqobatbardoshligini oshirishga yo'l ochadi. Yoshlar siyosati davlatning strategik rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. U ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga ham turki beradi.

Strategiyaning izchil va samarali amalga oshirilishi esa O'zbekistonning demografik ustunlikka ega bo'lgan davlatdan inson kapitaliga asoslangan, global raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatga aylinishiga zamin hozirlaydi.

Azamat SUYUNOV suhbatlashdi.

Botir Zokirov tavalludining 90 yilligiga



UMR DAFTARINING NURLI SAHIFALARI

Gapni bundan o'n kun oldin, ya'ni 15-aprelda mamlakatimizda keng nishonlangan tarixiy voqea — O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirovning 80-yilligiga bag'ishlangan tantanadan boshlamoqchimiz.

San'atkorimiz qutlash va "Buyuk xizmatlari uchun" ordenini topshirish marosimida Prezidentimiz Zokirovlar sulolasi deganda uzoq yillardan buyon milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atini xalqimizga taqdim etib kelayotgan butun sulola ko'z oldimizga kelishi, milliy estrada san'ati asoschisi Botir Zokirov ijro etgan o'lmas qo'shiqlar xalqimizning ulkan ma'naviy boyligi ekanini ta'kidlash. Mana shunday oila, butun bir avlodning o'z umrini san'at va madaniyat ravnaqiga bag'ishlashi dunyoda kam uchraydigan noyob hodisa ekaniga urg'u berdi.

Mazkur sulolaning ulug' vakillaridan biri, shubhasiz, Botir Zokirovdur. Hayot bo'lganida 26-aprel kuni 90 yoshga to'lgan bo'lar edi.

San'at olamida estrada yulduzi bo'lib porlagan xonanda o'zbek qo'shiqlarini qator mamlakatlar sahnasida mardonavor kuyladi. Dunyoda o'zbek degan buyuk xalq borligini fidoyilik bilan targ'ib qildi va tanitdi.

Botir Zokirovning umr daftarini varaqlar ekanimiz, hayot va ijod yo'llarida uchragan quvonchli hodisalar, ibratli voqealarga duch kelamiz. U hayotning oq va qora ranglardan iborat ekanini juda erta angladi. O'zi tanlagan yo'nalish — milliy estrada san'ati yo'li oson kechmasligini bilib, ayniqsa, san'at va madaniyat sohasidagi g'ovlarni yuksak iste'dodi va irodasi bilan yengib o'tdi.

Siz butun vujud, qalbi bilan qo'shiq kuylayotgan Botir Zokirovning yoniq, dardli

yo'g'rilgan asarlarini, Mirtemirning xalq donishmandligi ufurib turgan yorqin misralarini qayta-qayta o'qib, adabiyotdan ruhiy quvvat olar edi.

Botir Zokirov Moskvadagi Kremli shifoxonasida yotgan kezlari jahon va rus mumtoz adabiyoti namoyandalari mashhur asarlarini o'qigan haqida kundaliklarida yozib qoldirgan:

"Sharq tarixini o'qiyapman. Juda ko'p narsani bilmasligim ayon bo'ldi. O'z tariximni g'urur va faxr bilan o'qib o'rganma boshladim. Qanchadan qancha ochilmagan tengsiz xazinalar bor. O'z milliy madaniyatimizni hali juda yuksaklarga ko'tarishimiz kerak. Albatta, ko'tarish kerak! Qanday qilib? Hamma gap shunda..."



yuksak did tinglovchi yoki o'quvchini qattiq hayajonga soladi, yuragiga chuqur kirib boradi.

Teran didi va yuksak tafakkuri tufayli u ajoyib hikoyalar yozdi. Yozganlari mashhur adiblar Asqad Muxtor va Shuhratning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi. San'atkor o'ziga xos, betakror rassom ham edi. Kartinalarini taniqli rassomlar yuksak e'tirof etgan hamda Rahim Ahmedov, Ro'zi Choriyev, Ne'mat Qo'ziyoyev singari rangtasvir ustalari tomonidan samimiy kutib olingan. Bundan tashqari, Botir Zokirov "So'g'd elining qoploni" librettosini ham yozgan.

U Moskvada birinchi bor operatsiya qilingan vaqtda radio orqali Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari insensirovkasini mashhur artist Mariya Babanova ijrosida eshitib, qattiq

hayajonlangan. Shundan so'ng qissani o'zbek tiliga tarjima qilib, radiospektakli tayyorlagan. Keyinchalik esa Yevgeniy Shvartsning "Soya" asarini ham tarjima qilgan.

U hech qachon ijoddan to'xtamagan. Hatto "Yalla" vokal-cholg'u ansambli repertuari uchun she'rilar ham yozgan. U birinchi she'ri — "Layli" bilan faxrlanar edi. Keyinchalik bu she'r "Yalla"ning repertuaridagi ajoyib va betakror qo'shiqqa aylandi. Bu qo'shiqni hozir ham Farrux Zokirov yuksak mahorat bilan kuylab kelmoqda.

Botir Zokirov nafaqat milliy qo'shiqchilik san'ati, balki millatimiz qadriyatlarini, ziyolilarning savodxonligi, madaniyati va ma'rifati uchun ham qayg'urib yashadi.

Uning kundaligida bunday kuyinchak fikrlarni o'qiydiz: "O'zimiz o'zligimiz ildizini qirsaq, madaniyat va san'atimizni oyoqosti qilsak, g'ururimizni bema'nilarcha toptasak, iste'dod boshida to'ralarcha qilich yalang'ochlab tursak, qachon dunyodagi katta millatlar safiga qo'shilamiz? Qachon

yuksalamiz, qad rostlaymiz?.. Shoir do'stim Abdulla Oripov nihoyatda topib yozganidek: "Qachon xalq bo'lasan, ey sen olomon?.."

Ba'zan o'ylab qolaman: bugun qo'shiqchilik san'atida uchrayotgan sayozlik, yengil-yelpilik, ayniqsa, estradadagi quruq baqir-chaqirlarni ko'rib, eshitib, bizga Botir Zokirovdek chinakam sinchi san'atkor yetishmayotgani yaqqol namoyon bo'ladi. Ayrim taniqli san'atkorlar bilan esa suhbatlashish qiyin. Ularning savodsizligi, fikrining g'aribligi — umuman kitob o'qimaskilik, fikrsizlik va ongni hayot durdonalari bilan boyitib bormaslik oqibati de'oylayman. Axir Botir Zokirov, Sherali Jo'rayev, Faxriddin Umarov kabi ijodkorlar bilan suhbatlashsangiz, rohatlanardingiz va yana suhbatlashingiz kelardi. Ular qo'shiqlarining mazmun-mohiyatini teran tushunib ijro etardi. O'zlari ham juda bilimdon va chin ziyoli insonlar edi.

Botir Zokirovning umr daftarida bunday nurlu sahifalar juda serob. Bu ulug' san'atkorning ibratli ijodi, insoniy fazilatlar va dono fikrlari bugun ham o'z ahamiyati hamda qadr-qimmatini yo'qotgan emas. U kundaliklaridan birida bunday yozgan edi: "Agar qaytadan tug'ilish imkonini berilganda men baribir yana qo'shiq yo'lini tanlagan bo'lardim".

Ashurali JO'RAYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Haftalik MEDIA TAFAKKURNI YANGILAYOTGAN LOYIHA BESH KUNLIK INTENSIV MARAFON QASHQADARYO MATBUOTIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONINI TEZLASHTIRDI

Qoraqalpog'istondan start olgan media haftalik Xorazm va Surxondaryodan so'ng Qashqadaryoda davom etdi. Mazkur haftalik O'zbekiston Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi hamda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tashabbusi bilan Yoshlar ishlari agentligi va Qashqadaryo viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etildi.

Qarshi davlat universiteti Yoshlar markazida tashkil etilgan haftalikda viloyatdagi bosma ommaviy axborot vositalari xodimlari, telejurnalistlar, operatorlar, blogerlar va axborot xizmati vakillari ishtirok etdi. Shuningdek, sohaga qiziquvchi yoshlar ham seminarlarda tinglovchi sifatida qatnashdi.

Haftalik doirasida malakali ekspertlar tomonidan zamonaviy media olamining dolzarb yo'nalishlari, amaliy bilimlar va tajriba almashuviga boy mashg'ulotlar o'tkazildi. Dastlabki kungi mashg'ulotlarni boshlab bergan tajribali ekspert Eldar Asanovning "O'zbekiston bosma mediasidagi kontent: amaliyot, muammo va yechim" mavzusidagi treningi qizg'in muhokama va bahslarga boy o'tdi.

Unda bosma va internet jurnalistikasining afzalliklari, kamchiliklari, mavzu va janrlar xilma-xilligi, media bozorida turgan o'rni kabi jihatlar haqida fikr almashildi.

Gazetada ishlayotganimga 30 yilga yaqinlashdi. O'tgan davrda sohada talablar o'zgarib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz, — deydi "Chiroqchi" gazetasi muharriri Hazrat Egamberdiyev. — Media haftalik doirasida qator ma'lumotlarga ega bo'ldik. Jumladan, keyingi paytda ko'pchilikda internet rivojlanib borishi natijasida bosma nashrlarga e'tibor susaydi degan fikr paydo bo'ldi. Treningda internet jurnalistlari bilan gazetalarda mehnat qilayotganlar bir joyda jam bo'ldi. Mashg'ulotlar davomida internet va bosma nashrlardagi maqolalarning farqi xususida fikr-mulohazalar almashdik. Bosma nashrlarni yanada rivojlantirish, ommalashtirish bo'yicha muhim jihatlardan xabardor bo'ldik.

O'ziga xos malaka oshirish maktabini o'tab bergan haftalikda ishtirokchilar ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldi. Ayniqsa, yaxshi sayt, mobil versiya, SMM, video, podkast, newsletter kabi qo'shimcha formatlar tashkil etish borasidagi treninglar ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi.

Media haftalik men uchun taassurotlarga boy o'tdi, — deydi jurnalist Bahodir Halimov. — Ekspertlar bosma va onlayn ommaviy axborot vositalarining farqi, ularning bir-biridan o'rganishi



kerak bo'lgan jihatlar haqida to'xtaldi. Fikr-mulohazalarda kimdir onlayn jurnalistikani ustuvor deb bilsa, boshqa hamkasblarimiz orasida bosma OAVning afzal jihatlarini ko'pligini aytganlar bo'ldi. Ushbu shuki, OAV zamonga moslashishi, transformatsiya jarayonlariga o'tishi, konvergentsiyalashishi lozimligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Bu borada bizning tahririyatda allaqachon ishlar boshlangan. Onlayn OAV bilan bosma nashr o'zaro uyg'un tarzda faoliyat yuritayapti. Bundan ko'rinadiki, nashrlarni bosma yoki onlaynga ajratishning o'zi etadidir.

Besh kun davom etgan haftalikda quruq ma'ruzalar o'rini "jonli" jarayonlar egalladi. Jumladan, "Reportaj formulasi": siyosiy mavzularni odiy va qiziqarli tilda yetkazishning yangi usullari, "Raqqamli gigiyena": kiberhujumlar va raqqamli xavfsizlik sharoitida jurnalistning shaxsiy himoyasi va "Inson taqdiri": islohotlar natijasini raqqamlar emas, aniq insonlar hayoti

orqli ko'rsatish san'ati" kabi mavzulardagi chiqishlar qizg'in kutib olindi. Ishtirokchilar o'z malakalarini oshirish bilan birga amaliy ko'nikmalar hosil qildi.

Axborot maydonidagi tezkorlik, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining ortishi hamda sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bugungi media sohasi vakillaridan mutlaqo yangicha fikrlash va ishlash uslubini talab etmoqda, — deydi "Sevimli" telekanali muxbiri Shavkat Aminov. — Ayniqsa, tasdiqlanmagan xabarlar oqimi kuchayishi, tahliili manbalar salmog'i pasayib borayotgani soha vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklamogda. Mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan media haftaliklar ushbu jarayonda yirik ta'limiy va amaliy qadamlardan biriga aylandi. Haftalik mediatifiklashni qayta shakllantiruvchi, kasbiy dunyoqarashni kengaytiruvchi haqiqiy tajriba maktabi vazifasini o'tab berdi.

Besh kun ichida vohaning axborot makoniga yangi g'oyalar bilan kirib kela oladigan jamoa shakllandi.

Jumladan, axborot xizmatlarining 61 xodimi inqirozli vaziyatlarda ishlash va imij strategiyasini qayta ko'rib chiqqan bo'lsa, 39 nafar telejurnalist va texnik xodim zamonaviy reportaj ritmi hamda kadrlar dinamikasini o'zgartirish ustida ishladi. Bundan tashqari, bosma va internet OAV vakillari kontentning SWOT tahliili orqali o'quvchini qaytarish yo'llarini izlagan bo'lsa, bloger, mobilograf va SMM mutaxassislari yangi media trendlari, algoritmlar sirini o'zlashtirdi. Shuningdek, ishtirokchilar SI yordamida video yaratish, matnlarni generatsiya qilish va eng muhimi, feyk xabarlarini soniyalar ichida aniqlash bo'yicha "neyroko'nikmalarni" amaliyotda sinab ko'rdi. Bu Qashqadaryo mediasida vakillari uchun global axborot makonida raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan muhim bilimlardir.

Haftalikni yakunlovchi an'anaviy media forumda 500 ga yaqin ishtirokchi jamlandi. Ular mazkur loyiha Qashqadaryo viloyati media ijodkorlari uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar eshigini ochganini e'tirof etdi. Tadbir yakunida Kontent markazi loyihalari, Jurnalistlar uyushmasi dasturlari, hududiy hokimlik matbuot xizmati taqdimoti o'tkazildi. Shuningdek, ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi. Kelgusi hafta ushbu loyiha Samarqand viloyatida davom etadi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

U hech qachon ijoddan to'xtamagan. Hatto "Yalla" vokal-cholg'u ansambli repertuari uchun she'rilar ham yozgan. U birinchi she'ri — "Layli" bilan faxrlanar edi. Keyinchalik bu she'r "Yalla"ning repertuaridagi ajoyib va betakror qo'shiqqa aylandi. Bu qo'shiqni hozir ham Farrux Zokirov yuksak mahorat bilan kuylab kelmoqda.

va dono ko'zlarini ko'rganmisiz? Ha, uning donishmand ko'zlari porlab, tinglovchini hayratga solar edi. Dard bilan qalqib, hayotning iztiroblarini eslatardi. Donoligi esa umrning mazmundorligi va nurlu lahzalaridan xabar berardi.

Botir Zokirov ko'p kitob o'qigan, kitobni ma'naviy do'st va ustoz deb bilgan chin ziyoli edi. Shu bois, u o'zi bilan bir davrda ijod qilgan mashhur ijodkorlar — Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov kabi shaxslar bilan safdosh, suhbatdosh va dildosh bo'lgan. Ularning ijodini qadrlar, e'lon qilingan har bir yangi asarini o'qib, fikr-mulohazalarini, ba'zan esa e'tirozlarini ham bildirardi. Shuningdek, Botir Zokirov mashhur rassom Ro'zi Choriyev va taniqli aktyor Turg'un Azizov bilan ham yaqin do'st bo'lgan.

U katta ijodkorlar — Asqad Muxtorning teran falsafa bilan sug'orilgan she'rlari, Zulfiyaning vafo va sadoqatga

"Bir narsani angladim. Shu paytgacha olgan bilimlarim hech narsaga arizmas ekan. Hammasini imkon qadar qaytadan boshlash kerak..."

Hayotlik chog'idagi suhbatimiz jarayonida Botir Zokirov mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatov bilan Bishkekda uchrashgani, uning dala hovlisida mehmon bo'lganini faxr bilan gapirib bergan edi. Ayniqsa, yozuvchining o'sha yillari e'lon qilingan "Oq kema" va "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" asarlari haqida teran fikrlar bildirdi: "Oq kema" — falsafiy asar. Unda qirg'iz xalqi tarixidagi jarohatlar rivoyat va afsonalar orqali ochib berilgan. Ona bug'u fojiasi kishini titratib yuboradi. Chingiz Aytmatov — jahon adabiyotining ustunlaridan biridir".

Botir Zokirovning didi baland edi. Bu did uning har bir qo'shig'ida namoyon bo'ladi va aks sado berib turadi. Ijodkorning didi iste'dodi bilan chambarchas bog'liq. Yaratilgan asarda namoyon bo'ladigan